ABDUMALIK KUCHKINOV

PEDAGOGIK MAHORAT



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUMALIK KUCHKINOV YULDASHOVICH

PEDAGOGIK MAHORAT

(DARSLIK)
60110500-Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun

Toshkent
«Yangi chirchiq prints»
2023

UO‘K 373;37.0
KBK 74.202.5
K-67

Kuchkinov A.Yu. Pedagogik mahorat // Darslik. Toshkent. “Yangi chirchiq prints”, – 2023. 392 bet.

Mas’ul muharrir:

Shukurullo Qo‘ldoshevich Mardonov - *pedagogika fanlari doktori, professor.*

Taqrizchilar:

Jabborova Onaxon Mannapovna - *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Umarov Baxrom Norboyevich - *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Mazkur Darslik yangi o‘quv fani “Pedagogik mahorat” bo‘yicha ilk bor tayyorlangan bo‘lib, unda ushbu fanning davlat ta’lim standartlari hamda malaka talablari, shuningdek, uning asoslari milliy va xorijiy ta’lim tajribalari asosida yoritib berilgan. Darslikda o‘qitishning kredit-modulli tizimi talablari hisobga olingan va u 60110500- – “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-780-31-8

MUNDARIJA

	KIRISH	**5**
1-MODUL.	**PEDAGOGIKA MAHORAT FAN SIFATIDA.**	
1-mavzu.	O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat fanining o‘rni va ahamiyati	8
2-mavzu.	Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari	24
2-MODUL.	**O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATI**	
3-mavzu.	O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik qobiliyatning ahamiyati	53
4-mavzu.	O‘qituvchi pedagogik faoliyatida kommunikativ qobiliyatning o‘rni	67
5-mavzu.	O‘qituvchining pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishi. kasbiy pedagogik muloqot.	81
6-mavzu.	O‘qituvchi pedagogik faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.	102
7-mavzu:	Pedagogik jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot	126
3- MODUL.	**PEDAGOGIK NIZOLAR VA ZIDDIYATLAR.**	
8-mavzu:	O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nizolar va ziddiyatlar. ularni bartaraf etishning pedagogik-psixologik talqini.	151
4-MODUl.	**KASBIY FAOLIYAT MAZMUNI.**	
9-mavzu.	O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nazokat va odob-axloq	164
10-mavzu.	O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati va uni shakllantirish uslublari	178
11-mavzu.	O‘qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati	198
4-MODUL.	**O‘QITUVCHI MAHORATI.**	
12-mavzu.	Pedagogik nutq funktsiyalari	210
13-mavzu.	O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati	231

14-mavzu.	Zamonaviy dars kombinatsiyalari	248
15-mavzu.	O‘qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati	264
16-mavzu.	O‘qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi	278
5-MODUL.	**O‘QITUVCHI MEHNATINI TASHKIL ETISH.**	
17-mavzu.	O‘qituvchining kompyuter texnologiyalari asosidagi faoliyati	311
18-mavzu.	O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish	335
19-mavzu.	O‘qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o‘rni	362
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	389

KIRISH

"***Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi***"ning sakkizinchi bandida mamlakatda sifatli ta'limga erishish vazifalari belgilangan[1]. So‘nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda o‘sib kelayotgan avlodning sog‘lom va har tomonlama yetuk bo‘lib o‘sishiga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish bo‘yicha ***"O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"***[2] qarori qabul qilindi. Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi ***"Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"***gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib **PISA** ***(The Programme for International Student Assessment)*** Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadida, O‘zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida farmoni[3] qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"[4]gi qarori, Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish,

1 Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent, 2022.
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori, 08.05.2019 yil.
3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son farmoni, 29.04.2019 yil.
4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-son qarori, 08.12.2018 yil.

xalqaro aloqalarni o‘rnatish, ta’lim oluvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida qabul qilingan edi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “Pedagogik mahorat” fanining fan dasturida talabalar o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o‘rganadilar. Ushbu fan doirasida talaba o‘qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo‘llarini, vositalarini, shakllarini, o‘qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini orttirish maqsadida, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, raqobatbardoshligini ta’minlash, pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradigan biologiyani o‘qitishda masala va mashqlardan foydalanish muammolari yoritilgan.

Ushbu tajribalar asosida o‘qitish shakllarida foydalaniladigan o‘qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo‘llash, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo‘lib kelgan O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o‘zgacha ma’no kasb etishi shart. Bakalavrning sirtqi ta’lim yo‘nalishlarni pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo‘yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlash pedagogik mahorat fanining asosiy maqsadlaridan biridir. Chunki, hozirgi zamon o‘qituvchisi, avvalo hayotimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarning asosiy mohiyatini anglashi va har tomonlama yetuk, chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, kasbiy mahorat va layoqatga ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi zarur.

Pedagogik mahorat fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan masala va mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari, guruhlari, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish

va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish, ta’lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta’minlash va bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va an’analarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish va boshqarish. ta’lim va tarbiya jarayonini kelgusida o‘qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlash uchun normativ hujjatlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, moddiy–texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish. Bo‘lajak o‘qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma’naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish. “Pedagogik mahorat” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan va mashqlardan foydalanish bo‘yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulot ishlanmalarini loyihalash jarayonlarini shakllantirishdan iborat.

1-MODUL. PEDAGOGIKA MAHORAT FAN SIFATIDA.

1-MAVZU: O‘QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O‘RNI VA AHAMIYATI

REJA:

1. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat haqida tushunchasi va mohiyati.

2. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat fanining maqsadi va vazifalari.

3. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat fanining asosiy tarkibiy qismlari.

4. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat fanining vositalari.

5. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat fanining tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti va jamiyatdagi o‘rni.

Tayanch tushunchalar: *“Pedagogik mahorat” fani; pedagogik faoliyat; pedagogik jarayonning harakat vositasi; komponent; o‘qituvchining kasbiy tayyorligi; tarkibiy qismlar; “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun; “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”; prinsiplar; tarbiyalanganlik darajasi; zamonaviy axborot texnologiyalari; murabbiy; mustaqil o‘qib o‘rganish; guruhli va ommaviy tadbirlar; “Yil o‘qituvchisi”; “Yil maktabi”; “Axloqi Muhsiniy”; “ilg‘or o‘qituvchi”; “ijodkor o‘qituvchi”; “novator o‘qituvchi”; kasbiy sifatlar tizimi; “Yashil daftar hikmati”; o‘qituvchi va tarbiyachi.*

“Usta – kasbning eng zo‘r” ma’nosidagi “Mahorat” so‘zi avvallari asosan hunarmandlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, masalan: oshpaz, zargar, etikdo‘z, tikuvchi va hokazo. XX-asr boshidan boshlab “mahorat” tushunchasi tobora ijodiy kasblar bilan bog‘lana boshladi, masalan: qofiya ustasi — shoir, mo‘yqalam ustasi — rassom, sahna ustasi — aktyor va boshqalar. Pedagogik faoliyat ham ijodiy xususiyatga ega ekanligini hisobga olib, “o‘qituvchi – usta” uyg‘unligi tabiiy

holga aylandi. Biroq, hamma ham darhol usta bo‘la olmaydi, ba’zilari uchun ko‘p yillar talab etiladi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish, soha o‘zgarishlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetensiyalari

mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish, ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur»[5]. Pedagogik mahoratni shakllantirish muammosini bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda eng muhimi bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchining mahorati auditoriya va laboratoriya ishlarida namoyon bo‘ladi. Bu mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot, fikr almashish, hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. O‘quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, darsdan so‘ng o‘quvchida o‘rganilayotgan fanga ijobiy munosabat, ilmiy fikrlash, fanga va o‘qituvchiga fidoyilik hissi paydo bo‘lsin. Ta’limning o‘quvchiga ta’siri o‘qituvchining ilmiy salohiyatiga, uning obro‘-e’tiboriga, shaxsiy fazilatlariga, pedagogik mahoratiga bog‘liq.

O‘qituvchida eng avvalo bilim, mahorat, san’at, fikr, o‘quv jarayonini bilish, mahoratni hisoblanadi.

Ishning maqsadi: pedagogik mahorat asoslarini o‘rganish, pedagogik mahorat darajasini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar va mezonlarni aniqlash.

Pedagogik mahorat tushunchasi va mohiyati

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak, chunki faqat mahorat o‘qituvchi ishining samarali natijalarini berishi mumkin. O‘qituvchining

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti¸ Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057

pedagogik tashabbuskorligini va mustaqilligini so‘ndiradi, olim har bir o‘qituvchida o‘z pedagogik faoliyatini «ishonchli va isbotli» natijalar bilan baholash va uning natijalari hamda samaradorligi haqida gapirish malakasini rivojlantirish zarurligini aytadi.

Kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil qilish va o‘z–o‘zini tahlil qilishni o‘qituvchi faoliyati va refleksiv pozitsiyasi nuqtai nazaridan tuzatish va takomillashtirish maqsadida pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan pedagogik malakalar yig‘indisi sifatida qarab, A.V.Xristeva analitik malakalar tizimini analitik faoliyat tizimi bilan nisbatlaydi. U kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil va o‘z – o‘zini tahlil qilishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Mazmunli – diagnostik (tayyorlov — moslashuv) bosqich;

2. Maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o‘z–o‘zini tahlil qilishdan maqsadni aniqlashtirish) bosqichi;

3. Texnologik (kasbiy pedagogik faoliyat jarayonini va o‘z–o‘zini tahlil qilish) bosqich;

4. Tahlil va o‘z–o‘zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoliyatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyat jarayoni o‘rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi;

5. Faoliyatni refleksiv baholash (faoliyatni baholash va refleksiv tahlil) bosqichi;

6. Korreksiyalash (ijodiy bosqich bo‘lib, o‘z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va hamkasblarining samarali pedagogik tajribalaridan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari belgilanadi) bosqichi.

Muallif taklif qilgan analitik faoliyat algoritmi interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o‘tishi) jarayonida tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o‘tish mexanizmi qanday rivojlanishi, ichkisi esa, o‘z navbatida, tashqi faoliyat orqali o‘z–o‘zini o‘zgartirishini (uning davomida o‘qituvchilar kasbiy refleksiyasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan analitik

darajasi o‘zgaradi) tushunish imkoniyatini beradi.

N.A.Evert, A.I.Sosnovskiy, S.N.Kuliyev pedagogik mahorat tizimidan uchta asosiy: estetik (axloqiy), ijtimoiy–psixologik va texnologik kabi tarkibiy qismlarni ajratib, o‘qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ishlab chiqishadi va quyidagi bloklarni farqlaydilar:

- yuksak ma’naviy barkamollik;
- o‘qituvchining individual – psixologik xususiyatlari;
- hamkasblari bilan pedagogik hamkorlik;
- pedagogik texnikani o‘zlashtirish;
- shaxsiy kasbiy xususiyatlari;
- ijobiy natijalarga oson erishish.

O‘qituvchining ijtimoiy–psixologik shakllanishida o‘z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o‘qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Diagnostik dasturda o‘qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadqiqotchilik, mohirlik, reproduktiv (xotirada saqlash), rasmiy – ijrochilik kabi faoliyat bo‘yicha muntazam ish olib boradi. Ushbu faoliyat dasturlari ayniqsa, yosh o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida duch keladigan ijtimoiy munosabat, sinfdan qo‘rqish, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda ziddiyat hosil bo‘lishi kabi psixologik to‘siqlarni yengishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqur yondashuvida barcha o‘zaro bog‘langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas. Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo‘ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo‘g‘inlari tahliliga chuqur yondashib bo‘lmaydi. Umuman pedagogik faoliyat doimiy ravishda o‘z-o‘zini tahlil etish, o‘qituvchi refleksiyasi rivojlanishining tashabbuskori bo‘la oladigan o‘ziga xos «tezlashtiruvchi» rolini o‘ynamog‘i kerak.

4. O‘qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash

V.A.Suxomlinskiy pedagogik faoliyatga shunday ta’rif beradi: «*pedagogik rahbarlikning sirlaridan biri o‘qituvchilarda muntazam izlanish va o‘z ishining tahliliga qiziqish uyg‘otishdan*

iborat. Kimki o‘z darslarida, tarbiyalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda yaxshi va yomonni farqlashga, yutuq va kamchiliklarini o‘z vaqtida bilishga urinsa, pedagogik faoliyatning yarim muvaffaqiyatiga erishgan bo‘ladi».

Xuddi shu nuqtai nazardan ilgari surilgan g‘oyani V.I.Zagvyazinskiyda ko‘ramiz: u «*har bir o‘qituvchi mustaqil ravishda o‘z imkoniyatlarini aniqlashi, o‘z qobiliyatlarini va pedagogik mahoratini rivojlantirishi kerak. O‘zida ko‘p narsani kashf qilish, tavsiya qilinganlardan ko‘pini sinab ko‘rish, baholash lozim... o‘qituvchi o‘zini o‘zi yaratadi, kosib yoki ijodkor bo‘lishini ham o‘zi belgilaydi*».

O‘zining pedagogik tajribasini tahlil qilib, o‘qituvchi o‘z diqqatini tobora muvaffaqiyatli jihatlarga qaratadi, o‘zining ish samaradorligini pasaytirayotgan pedagogik muammolarni va qiyinchiliklarni ham ko‘ra olib, uni bartaraf etish yo‘llarini topadi.

Pedagogik faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarning dastlabki tadqiqlaridan birini N.V.Kuzminada ko‘ramiz. U o‘qituvchi duch keladigan dastlabki qiyinchiliklarni «*pedagogik faoliyatning tashqi omillari keltirib chiqaradigan va ichki omillarning xarakterida, kishining faoliyatga ta’limiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan tayyorgarligida paydo bo‘ladigan keskinlik, beparvolik, qoniqmaganlikning subyektiv holatidir*» deb ta’riflaydi .

T.S.Polyakovaning ishi endigina o‘z faoliyatini boshlayotgan o‘qituvchilar duch keladigan tipik didaktik qiyinchiliklarga bag‘ishlangan. U didaktik qiyinchiliklarga shunday ta’rif beradi: «*Didaktik qiyinchiliklar – o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi qiyinchiligi bo‘lib, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar yo‘qligi, keskinlik, beparvolik, o‘z ishidan qoniqmaganlikning psixologik holati yoki aksincha, uni bartaraf qilish uchun sharoitlar ta’minlangani holda pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik «fikrlashni», malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta’minlaydigan tetiklik, mobilizatsion tayyorgarlik, emotsional ko‘tarinkilik holatining mavjud emasligi*».

T.S.Polyakova pedagogik faoliyatdagi qiyinchiliklar

va ziddiyatlar uzoq muddat hal qilinmaganda, muvaffaqiyatsizlik vaziyatida nafaqat psixologik uzilishlar, balki o‘z–o‘zini baholashning pastligi, pedagogik mahoratni takomillashtirishning tormozlanish manbasi sifatida salbiy rol o‘ynashini aytadi. Pedagogik vazifalarga faol munosabatning zarur sharti bo‘lgan *rag‘batlantiruvchi* vazifa esa ijobiy rol o‘ynashini ta’kidlab, o‘qituvchining shaxsiy pedagogik mahorati zahirasini safarbar qiladi, uni ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish manbai deb hisoblaydi.

Qiyinchiliklarning pozitiv roli uning indikatorlik (hisoblovchi) vazifasi bilan ham belgilanadi. «*Indikatorlik vazifasi pedagogik mahoratning shakllanish jarayonini tormozlovchi obyektiv omillarni ajratadi, biroq u o‘z – o‘zini baholash tarzida subyektiv namoyon bo‘lishi, shaxs uchun faoliyatning tobora qiyin jihatlarini aniqlab berishi mumkin*».

Demak, o‘z pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o‘qituvchi aslo jismonan va ruhan bo‘shashishi, butunlay osoyishtalikka berilishi mumkin emas. Bu tuyg‘u psixologiya fanida relaksatsiya deb atalib, kishilarning ish faoliyatida salbiy holatlariga beriladigan baho sifatida e’tirof etiladi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, qiyinchilik – insonning subyektiv psixologik holati ekanligini, u hamma vaqt ham tashqi kuzatuvchi tahlil uchun qulay emas degan xulosa qilishga imkon berishini, bu esa hech kim o‘qituvchining kasbiy qiyinchiliklarini uning o‘zidan ko‘ra yaxshiroq aniqlay olmasligini va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ham o‘zidan boshqa kishi topa olmasligini ta’kidlaydi. Demak, *o‘qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy qiyinchiliklarini tadqiq qilishning yanada qulay yo‘li bu, o‘z–o‘zini tashxislash hisoblanadi.*

Shu bilan birga psixologik mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan “Autogen trenirovka” ham muhim ahamiyatga ega. “Auto – o‘z-o‘ziga ta’sir” ma’nosini bildirib, o‘qituvchi o‘z–o‘ziga ta’sir o‘tkazgan holda kasbiy faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklarni engib borishi mumkin.

Ya.S.Turbovskiyning fikricha, kasbiy takomillashuvning salbiy «energetik asosi» bo‘lgan qoniqmaslik hissi,

rivojlanishda to‘xtab qolganlikni chin ko‘ngildan his etish sanaladi. «*Buyruq, chaqiriq va nazorat emas, balki aynan o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqmaslik hissi, yuzaga kelgan pedagogik ziddiyatni boshqacha qilishga, buning uchun yangi vositalarni izlab topishga va uni o‘zlashtirishga ongli ravishda intilishini ta’minlaydi, qiyinchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishdan, shaxsan o‘zi hal qilgan tadqiqotchilik vazifasidan ijodiy quvonish, qoniqish hissi – o‘qituvchi kasbiy komponentining asosiy manbasiga aylanadi, aniqrog‘i, aylanishi mumkin*».

Ya.S.Turbovskiy tomonidan ishlab chiqilgan, pedagogik tajribani diagnostik o‘rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va jamoaning har bir a’zosida pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o‘rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o‘z navbatida o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Pedagogik tashxislash kons epsiyasi pedagogika fani va ta’lim muassasalari amaliyotining o‘zaro hamkorlik jarayonini boshqarish imkoniyatini ta’minlaydigan uchta metodologik asosni o‘z ichiga oladi:

- ma’lum bir pedagogik mahorat pozitsiyasini egallash;
- ma’lum bir maqsadga yo‘nalganlik;
- pedagogik mahoratni egallashga bo‘lgan ehtiyoj.

Turli boshqaruv tizimlari nuqtai nazaridan aynan bir xil natijalar u yoki bu muammoning dolzarbligi bilan belgilanadigan turlicha ahamiyat kasb etishi mumkin. Ish tajribasidan foydalanish hajmi va miqyosi ham har xil bo‘ladi. Kons epsiya mualliflari integratsion fan yutuqlaridan foydalanish samaradorligi, olimlar erishgan natijalar, amaliyotchilar unga ehtiyoj sezgan joyga borib etishi, ilmiy bilimlarning ma’lum bir maqsadga yo‘nalganligiga bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Fanning u yoki bu tarzdagi tavsiyalari pedagogikada ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyalar bilan ta’minlashdan avval amaliyot asosida aniqlangan ehtiyoj bo‘lishi kerak. O‘qituvchi mehnatini o‘rganish jarayonida qator shart sharoitlarga rioya qilish ko‘zda tutiladi. A.K.Markovaning fikricha, nafaqat

o‘qituvchilik kasbida uzoq o‘tmish tajribalaridan foydalanish darkor, balki o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining eng yaqin va olis istiqbollarini ham o‘tmish tajribalaridan foydalanish asosida belgilash zarur.

Shu munosabat bilan pedagogik tashxis pedagogik faoliyatda erishiladigan yutuqlarni belgilovchi (prognostik) xarakter kasb etganida samrali bo‘lishini ta’kidlamoqchimiz. Olimlar tomonidan olib borilgan tajriba ishlari jarayonida shu narsa aniqlandiki, pedagogik mahoratni tadqiq qilishning belgilovchi (prognostik) xarakteri bevosita o‘qituvchining kasbiy refleksiyasiga tayanadi.

Bu o‘qituvchining ta’lim–tarbiya jarayonida paydo bo‘ladigan muammosi aynan nimadan iboratligini va uning sababi aynan nima ekanligini aniqlash, sabab va oqibatlarini pedagogik qiyinchilik oqibati bilan qorishtirmaslikka imkoniyat beradi. Bunda pedagogik tashxislashning o‘qituvchi kasbiy faoliyatini tezkor korreksiyalash imkoniyatini beradigan o‘ziga xos indikatorlik (hisoblash) vazifasi namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘z potens ial imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e’tiborga olinishi lozim, — deb ta’kidlaydi A.K.Markova, — unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo‘yish o‘qituvchi kasbiy rivojlanishini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Ushbu o‘qituvchining individual rivojlanish mantiqini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchining yutuqlarini boshqa o‘qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o‘zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak.

Shaxsiy pedagogik faoliyatni o‘z–o‘zida tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi o‘zining ta’lim–tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o‘rganadi, pedagogik ziddiyatlar o‘rtasidagi sabab va oqibatli bog‘lanishlarni aniqlaydi, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo‘llarini belgilaydi, — deb ta’kidlaydi L.E.Pleskach. Olimning fikriga ko‘ra, ***“Refleksiya – o‘z–o‘zini tahlil qilish bo‘lib, o‘z–o‘zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy***

jihatdan takomillashishga nisbatan rag‘batlantirishdir”.

Ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek o‘qituvchi faoliyatida pedagogik tajriba o‘qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishning diagnostik metodikalaridan foydalanish va olingan natijalar tahlili pedagogik tashxislashni o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishini ta’minlaydigan usullardan biri sifatida baholashga imkoniyat beradi.

Zero, o‘qituvchi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishda “tajriba o‘rganishdan maqsad va uning vazifalarini rejalashtirish, dolzarb mavzuni aniqlash, maktab amaliyotida mohir o‘qituvchilarning yutuqlarini o‘rganish, materiallarni to‘plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish” kabi vositalardan foydalanadilar.

Shuningdek, ta’kidlamoqchimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo‘lganligida samarali bo‘ladi, bu o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda aynan ta’lim–tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytilganda, o‘qituvchi tomonidan o‘z kasbiy faoliyati natijalarini anglab etishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o‘zlashtirish zaruriyatini ta’minlaydi. Faoliyatni o‘zgartirish esa, ma’lumki, faoliyat subyektining o‘zgarishiga olib keladi. O‘qituvchining analitik (tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiyasi ham rivojlanadi, bu o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z–o‘zini rivojlantirish jarayonini ma’lum bir yo‘nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Qadimgi Rim faylasuflarining refleksiya to‘g‘risidagi qarashlari?
2. Refleksiyaga hozirgi zamon fanlari nuqtai nazaridan ta’rif?
3. Pedagogika va psixologiya fanlarining refleksiyaga nisbatan mulohazalari?

4. Refleksiyaga taniqli olimlar qanday ta’rif berishgan?
5. I.N.Semyonov refleksiyaning qaysi turlarini sharhlab bergan?
6. Pedagogik refleksiyaga ta’rif bering?
7. O‘qituvchi o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan qanday takomillashtiradi?
8. Pedagogikada “refleksiya” tushunchasiga qanday g‘oyalar nuqtai – nazaridan yondashiladi?
9. Pedagogik diagnostikaning mazmun-mohiyatiga va funksiyasiga ta’rif bering?
10. O‘qituvchining kasbiy professiogrammasi asosida, uning mahoratini aniqlash?
11. O‘qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ta’riflang?
12. Yosh o‘qituvchilar duch keladigan didaktik qiyinchiliklarni bartaraf etish muammolari?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish huquqi qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining” Oli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari-keng ko‘lamli chora “ gi PK-2909-son qarori / / O‘zbekiston Respublikasining Davomi Qonuni, 2017 yil, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda. 20.04.2017 y
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti” O‘zbekiston Yanada Respublikasi strategiya bo‘yicha harakatni boshladi “ gi PF-4947-Farmon bilan / / O‘zbekiston Respublikasi yordam to‘g‘risidagi qonun, 2017, 6, 70, 20, 354-moddalar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oli ta’lim samarali ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakat Amga oshirish keng kamrovli islohotlarda sudycha kyrgyzcha chora-tadbirlar dlrisida ta’minlashda ishtirok etish” gi PK-3775-son qarori / / huquq huzhatlyar ma’lumotlar bazasi ma’lumotlari, 0.06.0.01.
5. 2019 yil 31 dekabr “Uzluksiz ma’naviyat ta’limi tasdiqlash tushunchasi va amatga oshirish chorasi-uzoq muddatli chora” gi 1059-orzu yechimi 1-ixtiyoriy. // Bozori Milliy Direktoriyaning qonuni, 03.01.2020 Y., 09/20/1059/4265-o‘g‘li.
6. O‘zbekiston Respublikasi oliy va maxsus son professor-o‘qituvchilari 6011200-jismoniy tarbiya bakalavri Toshkent shahridagi pedagogik mahorat. https://www.namdu.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti G. M. Mirzievning” jismoniy tarbiya va sport plyaj sportini rivojlantirish masali alalariga bog‘langan “ igilish nutqi; 2018 yil 21 sentyabr xalq gazetasi 1-2 bet.
8. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi 2030 tasdiqlash konsepsiyasini ishlab chiqish” gi PF-5847-son qarori / ma’lumotlar bazasi bilan hamkorlik to‘g‘risidagi qonun, 08.10.2019.
9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston. 2017-y.
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. – 176 b.
11. Kaykovus Unsurul Maoliy. Qobusnoma. (Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi). S.Dolimov. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 208 b.

12. Navoiy Alisher. Mahbub ul–qulub. Asarlar. 15–tom. –T.: Fan, 2005.

13. “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktyabrda qabul qilgan Farmoni.

14. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 187 b.

15. Pedagogika (Pod. red. P.I.Pidkasistogo). – M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2003. – 608 s.

16. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar)–T.:”IQTISOD-MOLIYa”, 007.– 380 b.

17. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.

18. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. –T.: O‘qituvchi, 1984.-254 b.

19. O‘zbek pedagogikasi tarixi //A.Zunnunov tahriri ostida. T.: O‘qituvchi, 1997. – 272 b.

20. Tarbiyaviy ish metodikasi. // Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – T.: “O‘qituvchi”, 1991. – 376 b.

21. G‘oziyev E. Psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 224 b.

22. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- T.: Fan, 2005.- 206 b.

23. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.

24. Shedroviskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnost, refleksiya // Issledovaniye rechemislitelnoy deyatelnosti. – Alma-ata, 1974. — s. 12-28.

O‘QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 20 **23** yil “ **22** ” **Dekabr** dagi “**537**”-sonli buyrug‘iga asosan

A.Yu.Kuchkjnov

Boshlang‘ich ta’lim

ning talabalari (o‘quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Pedagogik mahorat

ga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazirning birinchi o‘rinbosari

K.Karimov

№ 537324

ABDUMALIK KUCHKINOV YULDASHOVICH

PEDAGOGIK MAHORAT

(DARSLIK)
60110500-Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 193329. 23.12.2023 y.
Bosishga ruxsat etildi 25.12.2023 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. ‘‘Cambria’’
garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 24.5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 48.

«Yangi chirchiq prints» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

ISBN 978-9910-780-31-8